

ISSN 2181-7324



O'ZBEKISTON
MILLIY
UNIVERSITETI

KABARLARI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR
YO'NALISHI

БЕСТНИК НУУЗ

ACTA NUUz



O'zMU XABARLARI

БЕСТНИК НУУЗ

ACTA NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2025

3/1/1

Tabiiy fanlar
turkumi

Bosh muharrir:
MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor
Bosh muharrir o'rinnbosari:
ERGASHOV Y.S. – f-m f.d., professor

Tahrir hay'ati:

Sabirov R.Z. – b.f.d., akademik
Jabbarov Z.A. – b.f.d., prof.
Raximova T.U. – b.f.d., prof.
Boboyev S.G. – b.f.d., prof.
Jobborov B.T. – b.f.d., dots.
Safarov K.S. – b.f.d., prof
Cezary Kabała. – b.f.d., prof.
Qodirova Sh.A. – k.f.d., prof.
Smanova Z.A. – k.f.d., prof.
Xoliqov A.J. – k.f.d., prof.
Xaitboyev A.X. – k.f.d., prof.
Mahkamov M.A. – k.f.d., prof.
Gulzeinep U. Begimova – k.f.d., prof
Musaxanov M. – f-m.f.d., prof. akademik
Otajonov Sh. – f-m.f.d., prof.
Tursunmetov K.A. – f-m.f.d., prof.
Nuritdinov S.N. – f-m.f.d., prof.
Polvonov S.R. – f-m.f.d., prof.
Xikmatov F. – g.f.d., prof
Berdiyorov G. R. - Senior Scientist, Energy Center, Qatar
Sabitova N.I. – g.f.d., prof.
Tojiyeva Z.N. – g.f.d., prof.
Umarov A.Z. – g.-m.f.n., prof.
Ishbayev X.Dj. – g.-m.f.d., prof.
Xoroshev A.V. – g.f.d., prof.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025

Sheraliyev B., Komilova D. Qoradaryoning o'rta va quy'i oqimi baliqlari faunasining (<i>Actinopterygii: teleoste</i>) yangilangan turlar ro'yxati va muhofaza maqomi	154
Shonazarova N., Eshboev F., Fayziyev V., Yuldashev E. Kartoshka y virusining o'simlik to'qimalaridagi xlorofil va karotinoidlar miqdoriga ta'sirini o'rganish.....	157
Geologiya, geografiya	
Abdunabiiev ISh., Oripov C., Kuchkarov K., Xamraev A., Ganiev A., Gaipova M., Makhmadiev M. Aномалии газохимических параметров в скважинах Кзылкумского геодинамического полигона связанные с землетрясениями	161
Allayarov B., Abdurahmanov B., Abzalov A., Gulmamatov O. Metodika seismostratiograficheskogo i seismoformacionnogo analiza yurskikh terriogenных otlozhennykh (na ploschadi Xatam).....	165
Atabaev D., Xusanbaev D., Abdullaev N., To'xtasinov A. Prospects for the paleozoic oil and gas potential of the Western Tien-shan according to geophysical data	169
Жураев М., Тошниёзов Х. Геохимическая специализация полиформационного Зинакского интрузива в Чакылкалянских горах (Южный Узбекистан)	173
Jurayev F., G'opurov M., Abdusalilova Z. Toshkent shahri va uning atrofidagi yer qobig'ining hozirgi zamon vertikal harakatlari	177
Зайнутдинова Д. Влияние экологического состояния городов на здоровье населения	181
Zakirov P., Xalismatov I., Allaev B., Abdurahmanov B. Yura terrigen formatsiyasi yotqiziqlaridagi organik modda va BXR dagi gaz to'plamlari miqyosi.....	185
Ibroimov Sh. Tuproq qoplaming strukturasi va sho'rlanish darajasining relyef elementlari bilan bog'liqligi	189
Камагурова С. Kriterии выделения окисленных и смешанных руд на золоторудных месторождениях	193
Kamolov B. Namangan viloyatida tabiiy resurslarni GAT texnologiyalari orqali baholashning metodologik assoslari	196
Qarshiev O., Djalilov G'., Axmedova D. Sirdaryo depressiyasi va unga tutash hududlarning strukturaviy-tekonik xususiyatlari.....	199
Qodirov M., Ziyomov B., Ziyabov Sh., Amirqulov J., Ergashov A. Qirqquloch koni burg'u quduqlaridagi amaliy geofizik tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishslash, tahlil qilish va umumlashtirish natijaları	203
Qo'ziboeva O., Maxkamov J. Farg'ona viloyati landshaftlarini tadqiq etishning nazariyi va metodologik masalalari.....	207
Maxkamov J. Iqlim o'zgarishining Farg'ona viloyati landshaftlarining barqaror rivojlanishiga ta'sirini baholashning geografik jihatlari	210
Otaboyeva N. Atrof-muhitni ifloslayotgan zaharli gazlarning inson salomatligiga ta'siri	213
Разиков О., Зияева П. Особенности рудоносности допалеозой-палеозойских осадочно-метаморфических толщ и их отражение в мезо-кайнозойских образованиях Западного Узбекистана	217
Rayimjanov R., Jo'rayev Sh. Mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari: Xitoy tajribasi.....	220
Raxmonova N. Влияние геологических и методических факторов на достоверную оценку запасов на примере месторождения Каульды	223
Садеев Н., Артикова Ф., Хамзаева Ж. Построение зависимостей $F = F(I)$ для определения морфометрических характеристик водосборов рек бассейна Амударьи	227
Tadjibaeva N., Miraxmedov T., Shishkina O., Abdullaeva M., Akbarova Z. "Angren" neftebazasi hududining muhandis-geologik sharoiti	231
Тогаев А. Расселение казахов в Узбекистане	235
Тойчиев X., Стельмах А., Таджибаева Н. Магнитостратиграфия четвертичных отложений Ферганской депрессии.....	239
Urazbayev A. Yer usti suv oqimining tabiiy-meliorativ sharoitga ta'sirini o'rganishda relyefni ideallashtirishning roli.....	243
Urazbayev A. Amudaryo hozirgi deltasi o'ng qirg'og'idagi kollektor havzalarini tabiiy-xo'jalik tizim sifatida tadqiq qilishning nazariy asoslari	247
Fayzullayev M., Sultonov Sh., Xujaqulov A. Qashqadaryo viloyati shimoliy-sharqi hududlarining tabiiy-geografik zonalari va tog' jinslarining rang-barangligi.....	251
Xolmirzaev M., Begaliev N. Farg'ona vodiysi yer osti suvlari rejimining dastlabki shakillanishi hamda ekspluatatsion sharoitlari.....	254
Хўжаева М., Тиловов Ф., Соостер А., Мирхамдамов М. Геолого-структурная позиция гор Мальгузар.....	258
Xo'jyozovala D. O'zbekiston ekoturistik rayonlarida ekoturizmni rivojlantrishdagi asosiy vazifalar	262
Xusomiddinov A., Bozorov J., Aktamov B., Yadigarov E., Yodgorov Sh., Raxmatov A., Chaqqonova S. Urgench shahrini seysmik mikrorayonlashtirish	265
Shermuhammedov U., Arziquulov M. O'zbekistonning turli hududlarida husayni uzumining rivojlanishi	268
Sherxolov O., Xoliqulov K. Buxoro viloyati aholi punktlarining hududiy tarkibi va joylashuvi	272
Shukurov N., Mahammamatov A. Tog'-kon sanot chiqindilarining atrof-muhitga ta'sirini monitoring qilish (Angren oltin boyitish zavodi chiqindilari misolda)	275
Eshboev N., Nosirov N., Abdullaeva M. Average air temperature trend analysis: a case study of Surkhandarya region, Uzbekistan ..	279
Kimyo	
Abdimuratova Z., Toshmurodov T., Ziyayev A., Babayev B. 5-aryl-2-Amino-1,3,4-Tiadiazollarning Shiff asoslari sintezi	283
Adinayev X. Gamma rangli shishalar sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalari	287
Адинаева Д., Сайдова Ш., Каттаев Н., Акбаров Х. Кинетический и термодинамический анализ неизотермического разложения слабоосновного анионита	290
Айтмуратова А., Сидрасулиева Г., Каттаев Н., Акбаров Х., Дадаходжаев А. Получение и исследование структурно-морфологических свойств наноразмерного NiO	294
Aliyeva G., Raxmonova D., Kadirova Sh. Ayrim 3d-metallarining 2-(1-benzotriazolil) etanamin asosidagi kompleks birikmalarini tadqiqoti	297
Aliqulova D., Durmanova S., Buriyev H., Bobomurodov N., Abdullaeva M. ION suyuqligi muhitida sholi moyi tahlili	301
Amanabayeva S., Mustafakulov M. Organizmlarda ammiak transporti va uning neyrodegenerativ kasalliklardagi ko'rsatkichlari.....	304
Atqiyayeva S., Oxundayev B., Botirov E., Sarabekov A. <i>Perovskia scrophulariifolia</i> ildizining kimyoviy komonentlar	308
Bobakulov X., Maxmudova Sh., Oxundayev B., Nishanbayev S., Sarabekov A. <i>Crocus sativus</i> o'simligi gultojibargining effir moyi tahlili	311
Bo'rixonov B. Xitozanni n-fenil-n,n-dietil, n-karboksibenzil ammoniy xlorid bilan reaksiyalarini muqobil sharoitlarini o'rganish	315
Buronov A., Bozorov Kh. Synthesis of (<i>e</i>)-5-(3,4-dimethoxybenzylidene)-3-methyl-6,7-dihydripyrrolo[1,2- <i>a</i>]thieno[3,2- <i>d</i>]pyrimidin-9(5 <i>h</i>)-one.....	318
Гулямова М., Сидикова С., Эшбеков А., Маулянов С. Физико-химические свойства, структура и комплексообразование пектиновых веществ с металлами.....	322



UDK: 551.435.126:910.1.(262.83)

Abdumajid URAZBAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti uslubchisi
E-mail: a.urazbayev@csipi.uz

CHDPU professori A.Urazbayev taqrizi ostida

AMUDARYO HOZIRGI DELTASI O'NG QIRG'OG'IDAGI KOLLEKTOR HAVZALARINI TABIIY-XO'JALIK TIZIM SIFATIDA TADQIQ QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqlolada kollektor havzalari ilk marta tabiiy-xo'jalik tizimi sifatida tadqiq qilindi. Kollektor havzalarini tabiiy-xo'jalik tizimi sifatida tadqiq qilishning bosqichlari relyef plastikasi uslub asosida ishlab chiqildi. Shu bilan birmgalikda kollektor havzalaridagi tabiiy tizimlar to'g'ridan to'g'ri xo'jalik tizimlariga ta'sir etishi natijasida vujudga keladigan salbiy va ijobjiy djarayonlar tizimi baholandi.

Kalit so'zlar: kollektor havzasi, tabiiy-xo'jalik tizimi, relyef plastikasi, daryo havzasi, geotizim, yer usti suv oqimi, havzaviy kartalashtirish, konsepsiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОЛЛЕКТОРНЫХ БАССЕЙНОВ ПРАВОБЕРЕЖЬЯ СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЫ КАК ПРИРОДНО-ХОЗЯЙСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В статье впервые исследуются коллекторные бассейны как природно-хозяйственная система. Разработаны этапы изучения коллекторных бассейнов как природно-хозяйственных систем на основе метода пластики рельефа. При этом системно оценивались негативные и позитивные процессы, возникающие в результате прямого воздействия природных комплексов коллекторных бассейнов на хозяйствственные системы.

Ключевые слова: коллекторный бассейн, природно-хозяйственная система, пластика рельефа, речной бассейн, геосистема, поверхностный сток воды, картографирование бассейна, концепция.

THEORETICAL BASIS OF THE STUDY OF COLLECTOR BASINS ON THE RIGHT BANK OF THE CURRENT AMU DARYA DELTA AS A NATURAL-ECONOMIC SYSTEM

Annotation

The article is the first to study collector basins as a natural-economic system. The stages of studying collector basins as natural-economic systems based on the relief plasticity method have been developed. At the same time, the negative and positive processes arising as a result of the direct impact of natural complexes of collector basins on economic systems have been systematically assessed.

Key words: collector basin, natural and economic system, relief plasticity, river basin, geosystem, surface water runoff, basin mapping, concept.


Kirish. Daryo havzalarini geotizim sifatida tadqiq qilishda L.M.Koritniyning "Daryo havzalari geotizim sifatida" (1974) nomli asari katta ahamiyatga ega. Bu asarda olim shunday deb yozadi: "Yer usti suv oqimi havzadagi relyef elementlari bilan bog'langan holda funksional yaxlitlikka ega bo'lgan daryo geotizimini hosil qiladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, L.M.Koritniy landshaft hosil bo'lishdagi S.D.Muraveyskiyning (1948) Yer usti suv oqimining roliga katta e'tibor berib, bu g'oyani geotizim ta'limoti asosida yanada rivojlantirdi. Olim so'nggi yillarda o'zining ilmiy g'oyalarini davom ettirib, tabiatdan foydalanishda havzaviy konsepsiyanı ishlab chiqdi (2001, 2017). Boshqacha aytganda, daryo havzalarini olim birlashgan bir butun tabiiy-xo'jalik tizimi deb qaraydi. Shu bilan bir qatorda olim bu konsepsiyanı tabiatdan tizimli foydalanishni boshqarishda, ayniqsa halqaro daryo havzalarining suv resurslaridan foydalanishda qo'llashni taklif etadi. Bu konsepsiyanı amaliyotga qo'llashda L.M.koritniy havzaviy kartalashtirishga alohida e'tibor beradi, ya'ni har bir daryo havzasida tabiat komponentlari o'zaro birlashib, funksional yaxlitlikni hosil qiladi degan umumiyyat xulosaga keladi. Umuman olganda, havzadagi har bir xo'jalik tizimi tabiiy tizim bilan doimo o'zaro aloqadorlikda bo'ladi va shu asosida barqaror rivojlanadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, Amudaryo hozirgi deltasi chap qirg'og'idagi kollektor havzalarida (Astanay, KT-1, KT-3, KT-4) tabiiy-meliorativ sharoitga bog'langan holda xo'jalik tizimlari shakllanadi va rivojlanadi. Kollektor geotizimlariagi tabiiy-xo'jalik tizimlarini tadqiq qilishda. L.M.Koritniyning metodologiyasiga ko'ra havzaviy kartalashtirish usuli bo'lgan relyef plastikasini asos qilib oldik va bir necha bosqichlarga ajratdik (rasm1).

Bunda biz L.M.Koritniy (2001) tomonidan ishlab chiqilgan "tabiatdan foydalanishda havzaviy konsepsiysi"ga asoslandik. Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, relyef plastikasi kartasidagi relyefning elementlari, ya'ni balandliklar va pastliklarning yig'indisi tog'li hududlarda daryo havzalarini hosil qilsa, delta geotizimlari esa kollektor havzalarini hosil qiladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, havzaviy kartalashtirish usuli bo'lgan relyef plastikasining nazariyasi to'g'ridan-to'g'ri tabiadon foydalanishdagi havzaviy konsepsiya mos keladi.

Tabiatdan foydalanishdagi havzaviy konsepsiyaning obyektlari sifatida daryo, ko'l, dengiz havzalari bo'lsa, bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan Amudaryo hozirgi deltasi o'ng qirg'og'idagi sug'oriladigan hududlarda esa kollektor havzalarini

(aspantay, KT-1, KT-3, KT-4) bo'ladi. Amudaryo hozirgi deltasi o'ng qirg'og'i sharoitida kichik deltalarining yig'indisi ma'lum bir kollektor havzalarini hosil qilib, ularning tabiiy chegarasi o'zanbo'yi balandliklaridan yoki ana shu balandliklarda joylashgan kanallardan o'tadi. Misol uchun, KT-1 kollektor havzasida SHo'rtamboy, Qizketken-Chimboy, Erkindaryo, Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltalarini va Amudaryo o'zanbo'yi balandliklari joylashgan bo'lib, uning g'arbiy chegarasi Amudaryo o'zanbo'yi balandliklaridan hamda Erkindaryo kichik deltasi suv ayirg'ichidan o'tgan bo'lsa, uning sharqi chegarasi Qizketken-Chimboy kichik deltasining o'zanbo'yi balandliklaridan o'tadi.



Rasm 1. Kollektor geotizimlarining tabiiy-xo'jalik tizimlarini tadqiq qilishda havzaviy konsepsiyasining nazariyasi asosida relyef plastikasi usuli qo'llanilishining bosqichlari

Havza tushunchasi landshaftlar geokimyozi fanida ham alohida o'rinn tutadi. Ana shuning uchun ham landshaftlar geokimyozi fanining asoschisi akademik B.B.Polinov shunday deb yozadi: "Barcha geokimyoiy tadqiqotlar faqat havzalar asosida olib borilishi kerak" (1956). Ana shuning uchun ham olim "O'zaro bog'liq

tahlilini ishlab chiqadi, ya'ni har qanday havzadarda tabiiy-geografik jarayonlar ma'lum bir qonuniyat asosida obyektning ichki tuzilishiga bog'liq holda tizimli o'zgaradi. Agar biz bu qonuniyatlarini tabiiy-xo'jalik tizimlarini tadqiq qilishda qo'llasak, bu holatda tabiiy tizimlarning meliorativ holati to'g'ridan-to'g'ri kollektor havzasining ichki tuzilishi bilan bog'liq bo'lsa, xo'jalik tizimlarining rivojlanish dinamikasi ham tabiiy tizimlar kabi obyektning ichki tuzilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Kollektor geotizimlarining relyef plastikasi kratlarda tasvirlangan havzadagi elementlarni (balandliklar va pastliklar) bir-biri bilan bog'lovchi tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari landshaftlarning tabiiy-meliorativ sharoitiga ta'sir qiladi. A.K.Urazbayevning ta'kidlashicha, kollektor havzalarida tabiiy-meliorativ sharoit bir tomondan kichik deltalarining "daraxtsimon" shakli bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa kollektor geotizimlarining ichki tuzilishi bilan bog'langan bo'lib, havza egallagan maydonda tartib bilan o'zgaradi. Kollektor havzalarida tabiat komponentlarining va tabiiy resurslarning tartib bilan o'zgarishi o'z navbatida obyektdagi tabiatdan foydalanishga havzaviy konsepsiyasini qo'llashning asosini tashkil etadi. Kollektor havzalarini sug'oriladigan hududlarning tabiiy resurslardan havzaviy foydalanish konsepsiyasiga tabiiy asos yaratadi. Bu esa o'z navbatida kollektor havzalvrini yaxlit tabiiy-xo'jalik tizim deb qarash uchun poydevordir.

Tabiatdan foydalanishdagi havzaviy konsepsiada havzaviy kartalashtirish usuli ham alohida o'rinn egallaydi. Havzaviy kartalashtirish usuli bo'lgan relyef plastikasi bu o'rinda topografik kartlarda tasvirlangan relyefning gorizontal chiziqlari asosida Yer yuzasining ikki elementi ko'rsatiladi, ya'ni balandliklar va pastliklar. Relyef plastikasi kartlarida balandlik va pastliklarning tasvirlanishi o'z navbatida har qanday maydonga ega bo'lgan havzalarini ko'rsatishga asos bo'ladi. A.K.Urazbayevning (2002) ta'kidlashicha, Amudaryo hozirgi deltasingin yirik masshtabli (M :25000) relyef plastikasi kartlarida ilk bor kollektor havzalarini tasvirlashga imkon yaratdi. Biz o'z navbatida kollektor geotizimlaridagi tabiiy-xo'jalik tizimlarini tadqiq qilishda kollektor havzalarining kartalaridan keng foydalandik.

Amudaryo hozirgi deltasi o'ng qirg'og'idagi kollektor havzalarining tabiiy-xo'jalik tizimlarini tadqiq qilishda L.M.Koritniyning "Tabiatdan foydalanishda havzaviy konsepsiya"si metodologik asos bo'lib hisoblanadi. Ana shuning uchun ham ishlab chiqilgan "bilish" tizimida bu konsepsiya tadqiq qilishning birinchi bosqichi hisoblanadi. L.M.Koritniy (2017) shunday deb yozadi: "Daryo havzalaridagi tabiat resurslardan havza konsepsiyasiga asoslangan holda foydalanishda shu geotizimda joylashgan "tabiiy-xo'jalik tizimi"ning obyekt bilan bog'langan holda qonuniyat asosida o'zgarishi alohida o'rinn tutadi". Daryo havzalaridagi tabiiy-xo'jalik tizimi geotizim hosil qiluvchi daryo havzalarining ichki strukturasini bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, daryo havzasidagi xo'jalik tizimlarining hududiy joylanishi to'g'ridan-to'g'ri obyektdagi tabiiy tizimlarga bog'liqidir.

L.M.Koritniy o'zining konsepsiyasini ishlab chiqishda daryo geotizimidagi tabiatning har bir komponentini element deb qaraydi va ularning yig'indisi tizimning o'shziga xos strukturasini hosil qiladi degan xulosaga keladi, ya'ni daryo havzasidagi har bir elementning o'zgarishi xo'jalik tizimlarining hududiy joylashishiga hamda strukturasiga ta'sir etadi. L.M.Koritniy o'zining g'oyasini davom ettirib, yana shunday deb yozadi: "Daryo geotizimini havzaviy kartalashtirishda daryo tarmoqlarining relyef yonbag'irlari bilan aloqadorligini tizim hosil qiluvchi oqimlar asosida ko'rsatish havza konsepsiyasining metodologik asosini tashkil etmog'i lozim". Ana shuning uchun ham, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda havzaviy kartalashtirish alohida o'rinn tutadi. A.K.Urazbayev 92021) konsepsiyaning asoschisi L.M.Koritniyning g'oyasini davom ettirib, shunday deb yozadi: "Barcha

daryo va relyefning elementlari topografik kartalarda har omonlama to‘g‘ri tasvirlanganliklari uchun barcha havzaviy kartalashtirishning negizida topografik kartalar bo‘lishi kerak”.

Kollektor havzalaridagi tabiiy-xo‘jalik tizimining hozirgi holati va kelajakdag‘i rivojlanishi bosqichlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri kimyoviy elementlarning migratsiyasi bilan bog‘liqidir. Landshaftlar geokimyosi fanining asoschisi B.B.Polinov (1956) kimyoviy elementlarning migratsiyasini tadqiq qilish uchun elementar landshaft guruuhlarini ajratadi. Ana shu tavsiifga asoslanib, biz ham Amudaryo hozirgi deltasi o‘ng qirg‘og‘idagi kollektor havzalarida elementar landshaft guruuhlarini, ya‘ni elyuvial, trans-elyuvial, superakval va akval tarzlarida ajratdik (A.K.Urazbayev, 2002). Kollektor havzalaridagi elementar landshaft guruuhlari o‘zaro birlashib, yaxlit geokimyoviy landshaftni hosil qiladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, yaxlit geoikmyoviy landshaftning hosil bo‘lishida asosiy omil Yer ustı suv oqimlari natijasida kimyoviy elementlarning migratsiyasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ajratilgan elementar landshaft guruuhlarining geokimyoviy holati bir-biridan keskin farq qiladi va ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri tabiiy-xo‘jalik tizimlarining sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sir etadi. Misol uchun, elyuvial elementar landshaftlarida joylashgan tabiiy-xo‘jalik tizimlarining sifat ko‘rsatkichlari superakval elementar landshaftidan tubdan farq qiladi. Ana shuning uchun ham birinchi navbatda kollektor havzalaridagi elementar landshaft guruuhlarining tabiiy-xo‘jalik tizimlariga qanday ta‘sir etganligini tadqiq qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kollektor havzalarida joylashgan har bir tabiiy-xo‘jalik tizimi ana shu kollektor havzalarining ichki strukturasi bilan bog‘liq holdagi qonuniyat asosida o‘zgarishi va o‘zaro aloqadorlikda bo‘lmog‘i lozim. Agar biz kollektor havzalaridagi xo‘jalik tizimlarining rivojlanishini ana shu obyektning tabiiy tizimlarini hisobga olmagan holda joylashtirsak, u holda hech qachon ijobjiy natijalarga erisha olmaymiz. Kollektor havzasidagi xo‘jaliklar obyektning tabiy tizimlari hamda uning funksional yaxlitligi bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lishi zamon talabidir.

Kollektor tashlama-1 havzasida joylashgan tabiiyxo‘jalik tizimlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mavjud xo‘jalik tizimlarining hududiy joylashishida kollektor havzasining funksional yaxlitligi hisobiga olinadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, har bir kollektor havzasidagi tabiiy-xo‘jalik tizimlarini tahlil qilishda funksional yaxlitlikni tashkil qiluvchi tabiiy izimlarni alohida element deb tadqiq qilish, so‘ng esa xo‘jalik tizimlarini ham element deb tadqiq qilish lozim. Bu ikki element o‘zaro birlashib, yagona tabiiy-xo‘jalik tizimlarini hosil qilganligi sababli, ularning o‘zaro aloqadorligini va o‘zaro bog‘liqligini tadqiq qilish tizimli yondashuvning asosini tashkil etiog‘i lozim, ya‘ni tizimli yondashuvda elementlarning o‘zaro aloqadorligini va o‘zaro bog‘liqligini tadqiq qilish alohida o‘rinni egallaydi. Mashhur geograf olim V.S.Jekulin (1989) shunday deb yozadi: O‘zaro aloqadorlik va o‘zaro bog‘liqlik geografiya fanining asosiy metodologik tamoyili” bo‘lishi kerak. Geograflarning asosiy maqsadi ana shu o‘zaro aloqadorlikni va o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilishdir. Biz ham V.S.Jekulinning g‘oyalariga tayangan holda, kollektor havzalaridagi tabiiy va xo‘jalik tizimlarining o‘zaro aloqadorligini va o‘zaro bog‘liqligini tadqiq qilishga alohida e’tibor berdik.

Hozirgi vaqtida tabiiy-xo‘jalik tizimlarining barqaror rivojlanishini har tomonlama ta‘minlab berish uchun xo‘jalik tarmoqlarining hududiy joylanishida tabiiy va iqtisodiy-geografik sharoitlar geotizim ta‘limoti asosida hisobga olinishi lozim. Boshqacha so‘z bilan aytganda, geotizim ta‘limoti asosida funksional yaxlitlikni ta‘minlovchi omillar inobatga olinishi kerak. A.Y.Reteyumning (1975) fikri bo‘yicha, geotizimning tabiiy chegarasi Yer ustı suv oqimlarining chegarasiga mos keladi. Demak, tabiatda mavjud bo‘lgan suv ayirg‘ichlarning regional yoki lokal o‘lchamlari har bir suv havzalarining funksional yaxlitligini ta‘minlab beradi. Shuni hisobga olgan holda, tabiiy-xo‘jalik tizimlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlab berishda daryo, ko‘l yoki sug‘oriladigan hududlardagi kollektor havzalarini tabiiy asos bo‘ladi. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, har bir obyektning funksional yaxlitligi tabiiy-xo‘jalik tizimlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlab beruvchi tabiiy va iqtisodiy-geografik omillar pojdevor vazifasini o‘taydi. Suv obyektlari havzalarning funksional yaxlitligida tabiiy-geografik sharoitning qonuniyat asosida tabaqlanishi tabiiy-xo‘jalik tizimlarining barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy-geografik asos yaratadi.

Xulosha

1. Har qanday hududlardagi suv havzalari: daryo, ko‘l va kollektorlar o‘ziga xos funksional yaxlitlikni hosil qiladi va ular “tabiiy-xo‘jalik tizimi” sifatida tahlil qilinadi. Bu esa o‘z navbatida obyektning tabiiy resurslaridan havzaviy konsepsiya asosida oqilona foydalanishga asos bo‘ladi.

2. Tabiiy resurslardan havzaviy konsepsiya asosida oqilona foydalanishda havzaviy kartalashtirish usuli bo‘lgan relyef plastikasi alohida rol o‘ynaydi. Regional va lokal masshtabdagi har qanday balandliklar va pastliklar o‘zaro birlashib, har xil kattalikdagi havzalarni hosil qiladi.

3. Delta geotizimlaridagi tabiiy-xo‘jalik tizimlarini tahlil qilish uchun yirik masshtabli topografik kartalar asosida yaratilgan relyef plastikasi kartalari alohida rol o‘ynaydi. Yaratilgan relyef plastikasi kartalari ilk bor Amudaryo hozirgi deltasi o‘ng qirg‘og‘ida to‘rtta kollektor havzalarini ajratishga imkon berdi. Yaratilgan yirik masshtabli kollektor havzalarini kartalari ularning ichki tuzilishi haqida har qanday ma‘lumotlarni berdi.

4. Yirik masshtabli relyef plastikasi kartalarida obyektdagi barcha balandliklar va pastliklar ko‘rsatilganligi uchun tuzilishi bo‘yicha boshqa kollektor havzalaridan tubdan farq qiladi. Bu esa o‘z navbatida har bir kollektor havzalarini o‘ziga xos geotizim sifatida tadqiq qilishga asos yaratadi.

5. Kollektor havzalarining ichki tuzilishi o‘z navbatida kichik deltalarining yig‘indisidan tashkil topgan. Kollektor tashlama-1 (KT-1) quyidagi kichik deltaldan tashkil topgan: Qizketken-Chimboy, Erkendaryo, SHo‘rtamboy va Ko‘hnadaryo-Qozoqdaryo. Kollektor tashlama-1 havzaning quyisi suv resurslari yetishmasligi sababli yaylov chorvachiligi rivojlangan.

6. Kollektor havzalarida elementar landshaft guruuhlarini ajratish kimyoviy elementlarning migratsiyasini tadqiq qilish uchun asos bo‘ladi. Kimyoviy elementlarning migratsiyasini o‘rganish esa o‘z navbatida tabiiy-meliorativ sharoitni tahlil qilishga ilmiy asosni yuzaga keltiradi. Daryo va kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslari yoki elementar landshaft guruuhlari obyektiv borliqidir.

7. Kollektor havzalarining ichki struktursi bir necha kichik deltaldan tabiiy tizimlariga ko‘ra xo‘jalik tizimlari joylanishi kerak, ya‘ni kichik deltaldagi tabiiy tizimlar xo‘jalik tizimlarining hududiy joylanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etadi. Bu aloqadorlikda tizim hosil qiluvchi Yer ustı suv oqimlari alohida rol o‘ynaydi.

8. Kollektor havzalarida tizimli o‘zgaradigan tabiiy tizimlar shu havzada joylashgan xo‘jalik tizimlariga ijobjiy yoki salbiy ta‘sir etadi. Kollektor tashlama-1 (KT-1) havzasida joylashgan barcha xo‘jalik tizimlar shu obyektning tabiiy tizimlari bilan aloqadorlikda bo‘lganligi uchun u yoki bu darajada rivojlanib kelmoqda.

9. Kollektor havzalari o'ziga xos funksional yaxlitlikka ega bo'lganligi uchun ularni geotizim yoki iqtisodiy-geografik rayon sifatida tahlil qilish yangi innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga imkon berdi. Kollektor havzalaridagi xo'jalik tizimlari o'z navbatida tabiiy tizimlar bilan aloqadorlikda bo'lishi shu obyektni alohida iqtisodiy-geografik rayon deb qarashga ilmiy asos yaratadi.

10. Kollektor havzalaridagi tabiiy-xo'jalik tizimlarining barqaror rivojlanishi uchun eng avvalo tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdagi havzaviy konsepsiya amal qilish lozim. Har bir suv obyektlarining o'ziga xos havzalarni hosil qilishi va ularda tabiiy resurslarning qonuniyat asosida o'zgarishi o'z navbatida tabiiy-xo'jalik tizimlarining barqaror rivojlanishi uchun tabiiy va iqtisodiy-geografik asos yaratadi. Suv havzalarining tabiiy resurslardan havzaviy konsepsiya asosida oqilona foydalanishda ularning funksional yaxlitligi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Жекулин В.С. Введение в географию. Л., Изд-ва Ленинградского университета, 1989, 272 с.
2. Корытный Л.М. Речной бассейн как геосистема // Докл. Инс-та геогр. Сибири и Дальнего Востока. -1974. -Вып.42. - С.33-38.
3. Корытный Л.М. Бассейновая концепция в природопользовании. -Иркуск: Изд-во Института географии СОРАН, 2001.-163.
4. Корытный Л.М. Бассейновая концепция: От гидрологии к природопользованию// География и природные ресурсы. 2017. -С.5-16.
5. Ретеюм А.Ю. Физика географическое районирование и выделение геосистем // Вопр. геогр. -М.: Мысль, 1975. -Сб. 98-С. 5-27.
6. Саушкин Ю.Г. Географическая наука в прошлом, настоящем, будущем. -м.: Просвещение, 1980.-269 с.
7. Уразбаев А.К. Системная организация природно-мелиоративных условий современной дельты Амударьи// Автореферат диссерт. на соиск. уч. степеней докт. геогр. наук. -Т.: 2002. 48 с.